

TERMIZ OBIDALARINING RUS TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN O'RGANILISHI.

**Raimov Mamasoat Safar o'g'li**

Termiz davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrası o`qituvchisi.

mamasoatr@gmail.com +998 90 522 44 74

**Anotatsiya:** Tarixiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan beri o'troq holda yashab kelayotgan insonlarni o`zida jamlagan navqiron Termiz shahri haqida qadimda juda ko`plab olimlar o`z asarlarida to`xtalib o`tgan. Markaziy Osiyo tarixi va mintaqa xalqlarining madaniy taraqqiyotini Termiz shahri tarixisiz hamda osori-atiqalarisiz tasavvur qilish nihoyatda qiyin. Jahon tarixiga munosib hissasini qo`shgan va qo`shib kelayotgan bu qadimiy shahar o`zining taraqqiyot bosqichida ko`pdan-ko`p hayajonli davrlarni boshidan o`tkazdi, necha ming yillar davomida tashqi dushmanlarning hujumlariga munosib qarshilik ko`rsatib "Madinat ul-rijol" (Mardlar shahri) unvoniga ega bo`ldi.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, Eski Termiz, TAKE, "Madinat ul-rijol" (Mardlar shahri), Termiz masjidlari, Z.A.Arshavskaya, E.V.Rtveladze, Z.A.Hakimov, Abulfazl Muhammad Bayhaqiy.

**Annotation:** Historical studies show that many scientists have written about the ancient city of Termiz, which has been inhabited since ancient times in Central Asia. It is extremely difficult to imagine the history of Central Asia and the cultural development of the peoples of the region without the history and monuments of the city of Termiz. This ancient city, which has made a worthy contribution to the history of the world and continues to add to it, has experienced many exciting periods in its development stage, and for several thousands of years it has successfully resisted the attacks of foreign enemies and became "Madinat ul- got the title "Rijol" (City of Heroes).

**Key words:** Central Asia, Old Termiz, TAKE, "Madinat ul-Rijol" (City of Heroes), Termiz mosques, Z.A.Arshavskaya, E.V.Rtveladze, Z.A.Hakimov, Abulfazl Muhammad Bayhaqiy.

**Аннотация:** Исторические исследования показывают, что многие ученые писали о древнем городе Термезе, который издревле был заселен в Средней Азии. Крайне сложно представить историю Средней Азии и культурное развитие народов региона без истории и памятников города Термеза. Этот древний город, внесший достойный вклад в мировую историю и продолжающий вносить в нее свой вклад,

пережил немало захватывающих периодов в своем развитии и на протяжении нескольких тысячелетий успешно противостоял нападениям иноземных врагов и стал «Мадинат ул» получила название «Рижол» (Город Героев).

**Ключевые слова:** Средняя Азия, Старый Термез, TAKE, «Мадинат уль-Рижол» (Город Героев), термезские мечети, З.А.Аршавская, Э.В.Ртвеладзе, З.А.Хакимов, Абульфазл Мухаммад Байхаки.

1897-yilda arxeologiya ixlosmandlari Turkiston to`garagining haqiqiy a`zosi I.I.Geyer Termiz xarobalarida bo`lib, minora, Al-Hakim at-Termiziy maqbarasiv undagi qabrtoshni suratga olib, 3 ta suratni to`garak arxiviga topshirdi.

Shuningdek, 1894-1899-yillarda Termizda arxitektura va tarixiy obidalarning rasmini chizishda ancha-muncha tanilgan kapitan B.N.Litvinovning ma`lumotlariga qo`shimcha ravishda, Al-Hakim at-Termiziy maqbarasining shakllanishi va uning qurilishi bosqichlarini aniqlash maqsadida Eski Termizdagi maqbarada 2006-yilning iyun-sentyabr oylarida Termiz Arxeologiya muzeyi va Termiz davlat universiteti olimlari tomonidan keng ko`lamda arxeologik kuzatuv vz nazorat ishlari olib borildi.Ushbu maqbara atrofi (4 tomoni 14 metr kenglikda maqbara asosiga qadar) davrlar davomida hosil bo`lgan madaniy qatlamlardan bosqichma-bosqich tozalandi.

Maqbaraning sharqiy va shimoli-sharqiy tomonlarida tosh qatlamga o`yib ishlangan g`orsimon inshootlarni o`rganish maqsadida 10 ta g`orsimon bino qoldiqlari qazib ochildi. Ushbu g`orlarni qazish jarayonida IX-XI asrlarga oid juda noyob sopol idishlar namunalari to`plandi.

Al-Hakim at-Termiziy maqbarasi va uning atrofida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Al-Hakim at-Termiziy maqbarasi bunyod etilgan joyda arablar istilosi arafasida Eski Termizning buddaviylik ibodatxonalaridan biri bo`lgan bo`lishi mumkin. Maqbara atrofidagi go`rsimon inshootlarning o`z qurilish va me`moriy tuzilishiga ko`ra milodiy II-IV asrlarga oid Qoratepa buddaviylik ibodatxonalarini majmuidagi g`orsimon inshootlarni aynan takrorlashi, aksariyat g`orsimon inshootlarda milodiy IV-VIII asrlarga oid ashyolarning ko`plab qayd etilishi 629-yilda Termizda bo`lgan xitoylik sayyox Syuan Szyan ma`lumotlari, ilk islom davri tarixchilari (At-Tabariy) va Al-Hakim at-Termiziy asarlarining tahlili shunday xulosa berishga imkon beradi.

2. Bu g`orsimon inshootlardan al-Hakim at-Termiziy (800-900-yillar oralig`i) va uning tarafdorlari va o`z faoliyatlari davomida muntazam

foydalanganlar. Malumki, al-Hakim at-Termiziy sufiylik tariqatining ilk namoyondalaridan biri va hakimiya tariqatining asoschisidir. Tasaffuv ta'limotining ilk shakllanishida buddaviylik muhim o'rin tutgan. Maqbara atrofidagi g'orsimon inshootlar esa sufiylarning buddaviylik inshootlaridan foydalanganliklari haqida dalolat beradi. Bu kashfiyot O'rta Osiyo arxeologiyasida ilk bor ayni shu g'orsimon inshootlarni o'rganish jarayonida yuzaga keldi.

3. Arxeologik tadqiqotlar tufayli al-Hakim at-Termiziy har bir tarixiy davrga xos me'moriy tuzilishini oydinlashtiruvchi ma'lumotlar ham to'plandi. Birinchidan, maqbaradagi dastlabki bino xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, U X asr boshlariga oid. Ikkinchidan, arxeologik tadqiqot natijalariga ko'ra, maqbaraning 2-qurilish davri X asr o'rtalariga, 3-qurilish davri XI asr oxiri va 4-qurilish davri Amir Temur hukmronligi davriga, 5-qurilish davri Xalil Sulton hukmronligining ilk bosqichi (1405-1406-yillar), 6-qurilish davri XVI asr va nihoyat 7-qurilish davri XVII-XVIII asrlarga to'g'ri keladi. Ayniqsa, 6-qurilish davri maqbaraning shimoliy tarafida slohida bir gunbazli inshoot barpo etilganligi va XVII-XVIII asrlarda maqbaraning shimoliy va g'arbiy taraflarida qabriston yuzaga kelganligining isbot etilishi muhimdir. Maqbara atrofida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida Arxeologiya muzeyi fondiga 448 dona spool buyumlar topshirildi.

1898-yilning yozida A.A.Dobrinskiy Moskva antropologiya va etnografiya jamiyati a'zolari Darvoz ilmiy ekspeditsiyasidan qayta turib Termizga keladilar. Ekspeditsiya a'zolaridan A.A.Semyonov Sulton Saodat maqbarasi bilan tanishdi va, eng muhimi, maqbaraning markaziy portal (peshtoqi)dagi yozuvlarni o'qiydi. Jumladan, arkning o'ng tomonida: "Sulton Said al-Muhammad" va ark ustidagi "Asad ibn abu Xasan Muhammad" va chap tomonidagi "Rabi al-Qosim Ali ibn al-Muhammad ibn Xasan" so'zlarini o'qiydi.

A.A.Semyonov tahminiga ko'ra, ushbu yozuv maqbarani qurdirgan hukmdor shajarasi bo'lishi mumkin. Shuningdek, maqbara ichidagi sirlangan yashil rangli g'ishtdan terilgan qabrtoshga to'xtalib, uning atrofidagi ganch usulida sirlangan kufiy yozuvi haqida ma'lumot keltiradi. Ammo qabrtoshning ko'pgina joylari loy bilan juda beo'xshov qilib suvab tashlanganligini takidlaydi.

A.A.Semyonovning ma'lumotlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, Sulton Saodat maqbarasi markaziy portalining janubiy tomonida joylashgan maqbara ichidagi Hasan al-Kabir qabri XIX asr oxiriga qadar naqshinkor sirlangan yashil rangda bo'lib, kufiy usubda yozuv ham bo'lgan. Ushbu

ma`lumot boshqa manbalarda uchramaydi. Afsuski, hozirgi kunga kelib ushbu qabr ustidagi naqshinkor yozuvlar butunlay o`chib ketgan.

1898-yilda Termizda bir necha yil yashagan harbiy muhandis B.N.Kastalskiy "Termiz va uning atrofidagi yerlar haqida qisqacha ma`lumot" nomli kitobida Eski Termiz qal`asi, al-Hakin at-Termiziy, Sulton Saodat maqbaralari, Kishmishxona (Qirqqiz) qal`asi haqida qiziq ma`lumotlar beradi. Masalan, janubi-sharqdan oqib keluvchi Surxon bilan janubi-g`arbgga qarab oquvchi Amudaryo oralig`ida uchburchak shaklda joylashgan Eski Termiz hududining eni 12 km ni, uzunligi 16 km ni, umumiy maydoni esa 100 kv.km.ni tashkil etadi yoki 10000 ga(desyatina)dan iborat. Balki, B.N.Kastalskiy yuqoridagi ma`lumotni tahminiy keltirgandir. Chunki, Eski Termizning umumiy maydoni 500 ga dan iborat ekanligini arxeologik olimlar tomonidan aniqlangan.

B.N.Kastalkiyning yana bir muhim ma`lumoti Al-Hakim at-Termiziy va Sulton Saodat maqbarasidagi masjidlariga taalluqli. Uning e`tiroficha, mahalliy aholi al-Hakim at-Termiziy maqbarasi yonidagi masjidga borgan. Masjidning shayxi va imomi Xo`ja Said Aziz bo`lib, u masjidda oila a`zolari bilan birga yashagan. Rivoyatlarga ko`ra, Xo`ja Said Aziz Xasan al-Amirning avlodlaridan biri Bibi Maqsumaga uylangan bo`lib, Soliobod (Salovat)dagi yerlar Buxoxo amiri tomonidan unga tortiq qilingan.

Hozirgi kunda Arxeologiya muzeyi ilmiy hodimlari tomonidan Xo`ja Said Aziz shaxsini aniqlash yuzasidan Salavot qishlog`ida yashovchi sayyidlar avlodlari o`rtasida so`rov-surishtiruv ishlari olib borilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ibrohimov N. Ibn Battuta va uning O`rta Osiyoga sayohati. Toshkent, 1993, 76-77 betlar.
2. Masson M.E. Gorodi Starogo Termeza i ix izuchenie. Trudy Uzbekistanskogo filiala AN SSSR. Seriya 1. Istoriya, arxeologiya. Termezskaya arxeologicheskaya kompleksnaya ekspeditsiya 1936. Tashkent, 1940, str. 10.
3. Nekrasova Ye. G., Filimonov V. M. Xonako v ansamble Sultan-Saodat. Kraevedenie Surxandari. — Tashkent, 1989, str. 86-92.
4. Temir Darvozaning mo`g`ulcha nomlanishi. Hozirgi Boysun tumanida, Darband va Sho`rob qishloqlari oralig`ida joylashgan (Qarang: S.Tursunov, I.Umarov va boshqalar. O`zbekistonda toponimik nomlar va ularning tarixi, Termiz, 2017, 82-89 betlar).
5. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. Modern Science and Research, 2(4), 720-722.

6. Habibullo o'g'li, R. M. (2023). SURXON VOHASI TOQCHI QAVMINING AN'ANAVIY TURMUSH TARZI.
7. Дуланов, О. Ю. (2021). СУРХОН ВОҲАСИ ЖУЗЛАРИНИНГ АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-3).
8. Qarshiyev, I. (2023). CLOTHES ARE A MATERIAL SOURCE THAT SPEAKS OF THE PAST. *Modern Science and Research*, 2(4), 741-745.
9. Холмуминов, Х. Э., & Эшмуминов, О. З. (2022). ПРОБЛЕМЫ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ПЕРЕСЕЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1925-1941 ГГ.). *Бюллетень науки и практики*, 8(1), 286-289.
10. Raimov M. BOUT THE HISTORY OF THE INDEPENDENCE OF TERMIZ FROM THE CHIGATOY SHARE // *Modern Science and Research*. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 1150-1154.
11. Safar o'g'li, R. M. (2023). TERMIZNING CHIG 'ATOY ULUSI TARKIBIDAN MUSTAQILIKKA CHIQISH TARIXI HAQIDA.
12. Choriyev, S. H. (2023). CULTURAL LIFE IN SURKHANDARYA IN THE YEARS AFTER THE SECOND WORLD WAR. *Modern Science and Research*, 2(9), 283-286.
13. Radjabova, Sabohat. "STATE POLICY TO SUPPORT WOMEN (FIRST STEPS)." *Modern Science and Research* 2.6 (2023): 49-52.
14. Эргашев, М. Э. (2021). ЧАФОНИЁННИНГ ЎРТА АСРААР ШАҲАРЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-3).
15. Dulanov, O. (2023). TYPES OF FARMING OF HUNDREDS (JUZ) INHABITING THE SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 161-165.